



JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar-sentabr*





JIZZAX VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Jizzax viloyatida 2023- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **1499,8** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **24,3** ming kishiga yoki **101,6 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **703,9** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **46,9 %**), qishloq aholisi soni **795,9** ming kishi (**53,1 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

1499,8 ming kishi

Tabiiy o'sish

+25,8 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar




46,9%

Qishloq



53,1%

Aholining tabiiy harakati, ming kishi



Jizzax viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023- yil yanvar-sentabr




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2023- yil 1- oktabr holatiga




2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, Jizzax viloyat doimiy aholisi sonining **33,4 %** mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **55,8 %** mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,8 %** mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi
2023- yil 1- yanvar holatiga


2023- yil 1- yanvar holatiga Jizzax viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **96,4 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **23,6 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **88,8 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **26,5 ming kishini** tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2023- yil 1- oktabr holatiga



Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- oktabr holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Jizzax viloyati	1466,6	1499,8	100,8
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	190,6	195,0	100,9
Arnasoy	47,8	48,5	100,5
Baxmal	165,6	169,7	100,9
G'allaorol	181,8	185,9	100,8
SH.Rashidov	235,2	241,5	101,0
Do'stlik	68,5	69,7	100,6
Zomin	174,1	178,5	100,9
Zarbdor	92	94,2	100,8
Mirzacho'l	54,2	55,1	100,6
Zafarobod	52,3	53,4	100,7
Paxtakor	78,8	80,5	100,8
Forish	96,4	98,1	100,6
Yangiobod	29,3	29,7	100,3

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **31,1** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **27,9** promilleni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan plus **0,5** promillega ko‘paygan (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **27,4** promille bo‘lgan).

Qiz bola:

14,9 ming kishi




O‘g‘il bola:

16,2 ming kishi

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-sentabr, kishi


Ma‘lumot uchun!: tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.



	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Jizzax viloyati	29802	31099	104,4
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	4358	3927	90,1
Arnasoy	822	837	101,8
Baxmal	3522	4034	114,5
G'allaorol	3776	3995	105,8
SH.Rashidov	4861	5485	112,8
Do'stlik	1211	1293	106,8
Zomin	3723	3900	104,8
Zarbdor	1939	1950	100,6
Mirzacho'l	860	822	95,6
Zafarobod	977	1070	109,5
Paxtakor	1603	1595	99,5
Forish	1673	1705	101,9
Yangiobod	477	486	101,9

3 nafar va undan ortiq egizak
4 ta

2 nafar egizak
349 ta



1 nafar
30 372 ta

2023- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:

- 1 nafar – **97,7%**
- 2 nafar – **2,2%**
- 3 nafar va undan ortiq – **0,1%**

VAFOT ETGANLAR

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **5,3** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,8** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan ko‘rsatkich 0,1 ga o‘limlar soni ko‘payganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- sentabr oylarida **4,8** promille bo‘lgan).


O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-sentabr, kishi




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **52,8** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,9** % i – o‘simtalardan, **11,0** % i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **8,4** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,5** % i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **0,9** % i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **12,5** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **7,9** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,1** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan minus **0,7**promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- sentabr oylarida **7,8** promille bo‘lgan).


NIKOHDAN AJRALISHLAR



2023- yil yanvar-sentabr oylarida **1,3** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,2** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,1** promillega oshganligi kuzatildi (2022- yil yanvar- sentabr oylarida **1,1** promille bo‘lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-sentabr




2023- yil yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **52,1 %** farzandsiz, **28,3 %** bitta farzand bilan va **19,6 %** ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)


2023- yil yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyati bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni **4 765** kishini. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami **6 230** kishini, migratsiya saldosi minus **1465** kishini tashkil etdi. 2022 yilning mos davrida minus **1372** kishi bo‘lgan.

Jizzax viloyati bo'yicha ko'chib kelganlarning taqsimlanishi



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **4,8** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **4,3** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan minus **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- sentabr oylarida **4,6** promille bo'lgan).

Jizzax viloyati bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **6,2** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **5,6** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- sentabr oylarida **5,9** promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar



organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 72 222-81-39